

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING MUHIM OMILI

Tuxtayev Olimjon Xalmuradovich

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oila institutini mustahkamlashning shakl, metod va vositalari sharhlangan. Jamiyatda barkamol avlod tarbiyasining falsafiy jihatlari o'rganilgan. Barkamol avlod tarbiyasi orqali oila institutini mustahkamlashning imkoniyatlari tahlil qilinib, uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** Oila instituti, barkamol avlod tarbiyasi, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, falsafiy tahlil, natija, hamkorlik.*

Dunyoda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar, iqtisodiyot yoki ma'naviy-siyosiy sohalarda bo'lmasin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi. So'nggi yillarda jamiyatimizda globallashuv jarayonlarining faollashuvi, ma'naviyat va ahloqiy tarbiyada g'arb ma'naviyatiga xos bo'lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jabhalariga va ayniqsa, oila muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat mamlakatimizning ertangi porloq istiqbolini ta'minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga ham katta e'tibor qaratilayotganligi barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosi ham shu muammolarni yechishga qaratilgan.

Bizning mamlakatimizda ham ushbu masalaning dolzarb muammo ekanligini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2018 yil 2 fevralda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon mamlakatimizda oila masalalariga ixtisoslashgan va shu sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning imkoniyatlarini yana bir karra oshirdi. Shuningdek shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning barkamol avlodni tarbiyalash - bu nafaqat oilaning, balki jamiyat va davlatning muhim vazifasi ekanligi to'g'risidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi"[2.10].

Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoiqlik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta'lim maskanlarida, mahallalarda berilayotgan ta'lim-tarbiya yotadi. Oilada singdirilgan tarbiya – Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, o'zaro hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning 70% ona tarbiyasi orqali singdirilishi esa, allaqachon isbotlangan.

Ona – dunyoda eng aziz inson. Barcha yaxshi fazilatlarimiz bizga eng qimmatli hayotni baxsh etgan onadandir. Onalik mehri, tinimsiz mehnati, sabr-toqat, tashvishlari hayotimizning birinchi kunidan boshlab bizni qamrab oladi. Shunday ekan, ayol - hayot boshi, farzand ijodkori. Ona – inson tafakkurining gullashi, fazlu kamolining mehriboni.

Kishilik tarixini yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlar pand-nasixati va o'giti faxrli o'rin egallaydi. Buyuk muhaddis Imom Buxoriy: "Farzandlarni diqqat-e'tibor bilan tarbiya qiling. Fazilat, odob va axloq o'rgatish, xulqlarini go'zallashtirib, ust-boshlaridan ziyoda aql-idroklarini tarbiya qiling" deydi. Demak, avvalo oilada ayol farzandiga anashu go'zal xulqni o'rgatadi. Bu yerda onalarning pedagogik donishmandligi, ularning boy madaniyati yuzaga chiqishi kerak. Shu o'rinda misol sifatida "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazining [1.101]"O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va hayotiy e'tiqodi" mavzusida

o'tkazilgan sotsiologik tadqiqoti natijalarini keltirish mumkin. Masalan, "Yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishda nima eng katta rol o'ynaydi?" degan anketa savoliga oila – 90,4%, mahalla – 53,2%, o'quv muassasalari – 47,8%, televideniye – 28,2%, jamoatchilik – 22,5%, adabiyotlar – 5,5%, internet – 2,5%, radio – 1,6%, kino – 1,4%, teatr – 1,3% va boshqalar – 0,1% deb tadqiqotda qatnashgan yoshlar javob berishgan. Yuqoridagi ko'rsatilgan tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, ko'pchilik yoshlarimiz barkamol avlodni tarbiyalashda oilaga yetakchi o'rinni bergan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda yoshlarni "Milliy g'oya" asosida komil inson qilib tarbiyalashda - buyuk ajdodlarimizning asarlarini chuqur o'rganish zarur deb - 49,2 %, oila va tarbiyaviy ishlar sifatiga e'tibor berish kerak deb - 45,1 % respondentlar qayd etishgan [3.29]. Shundan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda Vatanimizga sodiq va davlatimiz rivojida o'z hissasini qo'shadigan barkamol avlodni shakllantirishda ajdodlarimiz o'g'itlari va oiladagi tarbiyaviy ishlarning qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Har qaysi millatning, har bir insonning ma'naviyatini shakllantirishda oilaning o'rni beqiyos. Insonga xos bo'lgan eng samimiy va beg'ubor tuyg'ular, hayot to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar, atrof-muhitga munosabat, eng avvalo, oilada shakllanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning kelajakda komil inson sifatida shakllanishi uchun muhim bo'lgan dunyoqarashini, harakterini belgilab beradigan ma'naviy mezonlar – oliyjanoblik, insonparvarlik, mehr-oqibat, ezigulik, or-nomus, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi yuksak tushunchalarning barchasi oilada tug'iladi.

Odam bolasi pok, aqlan barkamol bo'lish uchun teng imkoniyat bilan tug'iladi. Biroq ota-onalarning farzand tarbiyasi to'g'risidagi bilim, hafsala va mas'uliyatlari turlicha. Shu sababli ayrim ota-onalar farzandlarini o'zlari, el-yurtimiz, davlatimiz kutayotganidek tarbiyalab, voyaga yetkaza olmaganlaridan achchiq pushaymon bo'lish o'rniga turli bahonalar bilan boshqa aybdorlarni qidirishga harakat qiladilar.[1.98] Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta bo'lishi bilan bir qatorda, asosiy o'rinda oila va ta'lim

muassasalarining sharoiti g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiyani o'rgatishdan maqsad ham, natija ham aniq bo'lishi kerak. Ta'lim-tarbiya sohasida insoniyat, shu jumladan, ulug' ajdodlarimiz yaratgan bilimlar majassamlashtirilsa, komil inson sifatlari, asosan, ezgu niyat, hur fikrlilik, ezgu so'z, xushmuomalalik, ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratligini ko'ramiz.

Tarbiya masalasida oilaning muhim ma'naviy, madaniy xususiyatlaridan biri - uning milliyligidir. Shu tufayli u o'zida muayyan milliy ma'naviyat, milliy tarbiya madaniyatini u yoki bu darajada aks ettiradi. Ota-onaning oilada farzandlar tarbiyasi bilan maqsadli, tizimli shug'ullanmasdan, e'tiborsizlik bilan qarashi ayrim salbiy holatlarga olib kelishini hayotiy misollarda ko'rish mumkin. Ota-ona obro'sini, aslida ularning farzandi shaxsi bilan qiziqishi, o'sib borayotgan ehtiyojlarini o'rganib, boshqarib, qondirib borishi va shu tarzda uning tarbiyasini to'g'ri yo'naltira olishi oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimiz tarbiyasini turli niqobdagi mafkuraviy tahdidlardan asrash uchun oila va ta'lim muassasalarida milliy tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik xususiyatlarini va uni faol ma'naviy himoya omiliga aylanishida ota-onalar, pedagoglarning bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz takomillashtirish davr talabidir. Shuningdek mamlakatimizda oila masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini yanada faollashtirish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1. Холматова М.Х. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. -Т.: «Ўзбекистон». 2000. 217-бет.*
- 2. Тиллаева Г Оила муҳитини соғломлаштириши - давр талаби. -Т: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. 10-11-бетлар.*
- 3. Ubaydullayeva R.A. «Sotsiologiya obshestvennogo mneniya» -Т.: Ijtimoiy fikr, 2010, 130 s.*